

РЕЗЮМЕ. В данной статье речь пойдет об одной из каракалпакских национальных традиций-традиции "Разрезания пут", будут рассмотрены вопросы возникновения этой традиции, в каких случаях она существовала, сравнение проводимой в последнее время в нашей стране Разрезания пут с прошлым и настоящим и другие.

SUMMARY. This article will focus on one of the Karakalpak national traditions-the tradition of "Cutting bonds", the issues of the origin of this tradition, in which cases it existed, a comparison of the recent Cutting of bonds in our country with the past and present, and others will be considered.

“SAB’AI SAYYOR” DOSTONI TARJIMASIDA MUQOBIL SO’Z VA BADIY USLUB

Z.G.Azilova – *assistent o’qituvchi*

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so’zlar: asliyat, tarjima, mazmun, musalsal, muraddaf.

Ключевые слова: оригинал, перевод, содержание, «мусалсал», «мураддаф».

Key words: original, translation, content, continuity, synonymous expression.

Kirish. O’zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalari taraqqiyotida badiiy tarjimaning vositachilik o’rni alohida ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, mazkur ikki xalq turmush tarzi, madaniyati va ma’naviyati, ilmiy-adabiy hayotidagi o’zaro yaqinlik, hamohanglik mavjudki, har ikki adabiyot barcha davrlarda bir-biridan oziqlangan, ta’sirlangan, ijodiy o’zlashtirgan holda ustoz-shogirdlik an’analari davom etib keladi. Mazkur maqola Navoiyning “Saba’i sayyor” dostoni tarjimasida she’riy san’atlar, vazn va ohang saqlanishi kabi masalalarni qiyosiy tahlilga tortish orqali poetik uyg’unlikka erishish tajribalari umumlashtirilganligi bilan dolzarbdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqolada berilgan mavzuni tadqiq etishda G.Salomov, E.Ochilov, N.Komilov [6], K.Qurambayev [7], K.Tashanov [8] singari olimlarning tadqiqot va maqolalaridan foydalanildi. Maqolaga qo’yilgan masalaning maqsadidan kelib chiqib, maqolada tarjima matnlarini qiyosiy-chog’ishtirma, badiiy-estetik tahlil, statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Natijalar. M.Matnazarov tomonidan qoraqalpoq tiliga tarjima “Saba’i sayyor” dostonida asliyat va tarjimaning qiyosiy o’rganish jarayonida kuzatildiki, ayrim boblardagi ba’zi epizodlarda ijodiy tarjimalar o’zini oqlagan. Xususan, asliyatda XVIII bobda Bahrom taxti “taxta”dek tuyular edi, deyiladi. Tarjimada esa bu bayt “tabitinday” deb tarjimalangan. Tarjimadagi 2-bayt esa asliyatda yo’q bo’lib, tarjimon tomonidan ijodiy qo’shilgan. Shuningdek, tarjimada 137-baytda Farruxni topolmagan amaldorlar holati tasvirlangan “Uyasinan gayip bolgan qusim” degan o’xshatish asliyatda yo’q bo’lib, bu tarjimonning ijodiy yondashganligini ko’rsatadi.

Muhokama. “Sab’ai sayyor” dostoni asliyatda jami 38 bob 5000 bayt bo’lib, tarjima esa 11 bobni o’z ichiga oladi. Asliyatda dostonning 11 bobi muqaddima bo’lib, 12-bobdan asosiy qism boshlanadi. Tarjima ana shu 12-bobdan boshlanadi. Asliyatda XII bobdan XIX bobgacha bo’lgan voqealar 758 baytni tashkil etsa, tarjimada bu voqealar qisqartirilib, bir bobda bayon etilgan. Bu bob 343 baytdan iborat. Quyidagi jadvalda boblardagi baytlar va radiflar soni keltirilgan:

Doston boblari	Asliyatda		Tarjimada	
	Baytlar soni	Radiflar soni	Baytlar soni	Radiflar soni
12 – 19	758	223	343	12
20	28	7	6	-
21	454	96	365	19
22	17	2	8	1

23	281	62	253	12
24	16	2	11	1
25	418	82	294	16
26	17	3	14	-
27	467	92	384	57
28	19	2	5	-
29	365	73	320	33
30	19	2	10	-
31	333	68	265	25
32	17	2	12	1
33	374	116	312	50
34	109	31	79	9
35	99	25	70	14
36	68	20	-	-
37	174	44	-	-
38	128	48	45	2
Jami	4161	1 000	2796	252

Biz tahlil jarayonida aniqlikka asoslanish maqsadida tarjimaning asliyatdagi kabi boblarga ajratib o’rgandik. Ya’ni asliyatda bob qaysi voqeadan boshlanib qaysi voqeadaga tugasa, tarjimaning ham shu tartibda boblarga ajratdik. Dostonning XII bobdagi birinchi bayti **asliyatda:**

Mu’badikim varaqqa chekti raqam,

Kim, ne nav’ o’ttilar muluki Ajam [2:69].

“Mu’bad – otashparastlarning raisi, obid”; obid so’zi o’z navbatida – “toat ibodat qiluvchi, sig’inuvchi”; nav’ so’zi – “ko’rinish, yo’l-yo’riq; yo’sin” [1:399, 421, 457.] ma’nolarini bildiradi. Baytdan toat-ibodat qiluvchilar Eron shohlari qanday yashab o’tganliklarini yozib qoldirdilar, degan ma’no anglashiladi.

Tarjimada:

Iran shah sardarin tariyplep mudam,

Dastanlar doretken sol dana adam [4:11].

– deb tarjima qilinib, “sol dana adam” noaniq bo’lib qolgan. Quyidagi bayt esa tarjimon tomonidan qo’shilgan bo’lib, asliyatda uchramaydi:

Oz elinen saliq jiynap saz gana,

Qospaw kerek elindegi qaznaga [4:11].

Bu bayt asliyat mazmuniga mos. Ya’ni soliqlarni shoh Bahromga olib borilishi lozimligi haqida aytiladi. Bu esa tarjimonning ijodkorligidan darak beradi.

XII bobning 113-baytida “Men kabi odam uning haqida yuz ming marta gapirgani bilan, bari-bir u go’zalning vasfini ming yilda ham sharhlay olmaydi” deya ta’kidlanadi:

Men kibi kimsa cheksa yuz ming til,

Bo’lmag’ay vasfi sharhi yuz ming yil [2:76].

Tarjimada:

Mıñ ásirlik bálkim dáwrın súrsem de,

Júz mıñ jurttıń tilin bilip júrsen de [4:16].

– deb tarjima qilinganki, mazmun o‘zgarishga uchragan, uning ustiga qo‘shimcha baytga ehtiyoj sezilgan. Ya‘ni tarjimon Navoiyning bir baytda ifodalagan fikrni ikki baytda aks ettirgan:

Múmkın emes táriyp etip jarıwım.

Seslerine say jamalın arıwdıń (16-bet).

Dostonning ko‘p o‘rinlarida musalsal san‘ati qo‘llanilgan. Musalsal arabcha “مسلسل zanjirsimon, ya‘ni halqa-halqa qilib ulash” [3:441].

qo‘shimchalar qo‘shilib takrorlangan: sanasań-sanap (15-bet), Axiyga-Axiy (58-bet), sarayın-sarayda (109-bet).

Doston tarjimasida voqealar ketma-ketligi to‘g‘ri, hech bir epizod qolib ketmagan. Faqat ta‘rif-tavsiflar, Bahrom va Dilorom tasviri, Diloromga oshiq bo‘lib qolgandan keyingi holati, ruhiyati, kechinmalari, asliyatdagi kabi to‘liq berilmay, qisqartirilgan. Shuning hisobiga baytlar soni kamayib borgan.

Dostonda Bahrom mamlakat ishiga qaramay qo‘ygach yaylovlar bo‘ri-qashqir kabi yirtqichlar bilan to‘lib, qo‘ygina emas cho‘ponlar ham ularga yem bo‘ladi:

Qurtdek bo‘ri birla to‘ldi yobon,

Dema qo‘y, balki tu‘ma bo‘ldi shubon (93-bet).

Tarjimada ham bu tasvir asliyat kabi saqlangan:

Átirapta qasqır qurttay qaynadı,

Dártı shopan, qoydı da jep toymadı (21-bet).

Mazkur o‘rinlarda asliyat bilan tarjima o‘rtasida farqlar mavjud. Asliyatda Bahrom ovda kiyikni ko‘rib qoladi, tarjimada esa Dilorom ko‘rib qoladi. Bu yerda obrazlar vazifasi almashinib keladi.

Bahrom Diloromni o‘ldirmoqchi bo‘lganidan keyin o‘z-o‘ziga: “Yo‘q bu xilda qilish yaxshi emas, zaif kishini tig‘ bilan qatl etish durust emas” deydi [2:398].

Tarjimada esa:

Shabilmaqta sheshek atqan sárwi tal,

Birli yarım keńes ayttı sol máhel (26-bet).

- deya boshqa mazmunda tarjima qilinadi. Asliyatda esa Bahromga hech kim maslahat bermaydi.

Talmeh san‘ati vositasida Bahrom shunday nola bilan faryod chekadiki, go‘yo Farhod o‘z Shirinini yo‘qotgandek tasvirlanadi.

Tarjimada:

“Farxad izlep Shiyriń yarın tappadı!

– Dep jahanger bozlap jılap dadladı! (28-bet).

deya o‘g‘irilib, she‘riy san‘at saqlangan. Bahromning o‘z-o‘ziga, falakka qarata aytgan manologi tarjimada juda qisqa bo‘lib qolgan. Bor-yo‘g‘i 3 baytdan iborat. Asliyatda esa 17 baytni tashkil qiladi. Quyidagi baytda “voy” so‘zi radif sifatida keltirilib, Bahromning dardi naqadar og‘irligini ifodalagan, hojib ham qo‘llanilgan:

Dedi: “O‘z jonimg‘a ne qildim, voy!

Bo‘lumi buyla ish ne bildim, voy! (101-bet).

Tarjimada esa bu bayt tushib qolgan. Navoiy Bahrom Diloromdan ayrilgach, chin oshiq bo‘ladi deya tasvirlaydi, tarjimada bu baytlar berilmagan:

Jonimni olg‘ilki, to‘ymisham billoh!

Ko‘ngul o‘lmakka qo‘ymisham billoh! (102-bet).

XXVII bobda tasvirlanishicha, kechasi Bahrom yavvoyi hayvonlar makonida tunaydi. Tarjimada uning yor hajrida

qiynalayotganligi tasvirlari qisqartirilgan bo‘lib, 15 baytdan iborat. Asliyatda esa 102 bayt.

Tarjimadagi 2-bayt esa asliyatda yo‘q bo‘lib, tarjimon tomonidan ijodiy qo‘shilgan. Keyingi baytda “Shahdi” so‘zi “shahli” tarzida yozilgan:

Bosağağa ájel kelıp jaqınlap,

Sayıł shahlı kórdı qalğan aqıldan (29-bet).

“Sayıl – at. Úyi, mákanı joq, el geziwshi, gezende, diywana” [5:163]. “Diywana –aqılsız, delbe” [5:162]. Diywana so‘zi asliyat ma‘nosiga to‘g‘ri keladi. **Asliyatda** Bahrom ezilaverib, es-hushidan ham ayrilib qoladi.

Tarjimada 1-7, 13, 16, 18, 23, 25, 29, 31, 34, 38, 40-46, keyingi ba

49-50, 89-90-baytlar mavjud emas. Shuning uchun ham **asliyat** – 92, **tarjima** – 56 bayt. Tarjimada Bahromning holati, davlat boshliqlari aytgan gaplar ham qisqartirilgan.

XIX bob asliyatda 56, tarjimada esa 40 bayt. XIX bob tarjimasida asliyatdagi 31-51-baytgacha bo‘lgan voqealar yo‘q. To‘g‘ridan-to‘g‘ri tabiblar qaysi kun, qay soatda, qaysi saroyda bo‘lishini aytdi, deyiladi, biroq asliyatda shanba qutlug‘ kun ekanligini tabiblar emas, vaqtshunos olimlar aniqlaydilar.

Qayta taptı Bahram sayrı-tahatın...

Al, táwıpler ayttı kunin saatın: (34-bet)

Asliyatda shu bilan bob tugaydi, tarjimada esa voqealar davom etadi. Bahrom malaylarga bir oqshomga mehmon topishi haqida buyruq beradi. Ular jahon kezzgan bir “gezende qálender” topib, Bahromning oldiga olib kelishadi. Shu joyda “gezende” so‘zi noo‘rin qo‘llanilgan. Bu so‘z asliyatda yo‘q.

Asliyatda XX bob 482 baytdan iborat bo‘lib, shundan 103 tasi radifli bayt hisoblanadi. **Tarjimada** esa 371 bayt bo‘lib, shundan 19 bayti muraddafdir.

XXIII bobdagi ba‘zi baytlarda qofiya yo‘q: *aspanniń-asqanı, saraydıń-qaraydı, qozğanin-qaznaniń, ónerge-ólerdey, gezekti-ósekke, oğırı-sońıraq, qalaylap-qalayda, aqıl-shırağı, sazlamaq-qaznama, malingan-halında* va hokozo. Ko‘rinadiki, bu so‘zlar o‘zaro qofiyadosh bo‘lolmaydi.

“Sab‘ai sayyor” dostoniga oid uchinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir hikoyasining 61-62-baytlarida tong tasviri berilgan bo‘lib, bu baytlar tarjimada yo‘q. Sa‘dga Faylaqus hakim tushining ta‘birini aytmadan oldin o‘zining ham tush ko‘rganligini, Xizrga tushi ta‘birini aytganligini, tushi ta‘birini bilganligini aytdi. Unda yuz yildan keyingi dayr ichida Sa‘d ismli odam paydo bo‘lishi, Sa‘dning tushi ta‘birini yechgach, u ham murodiga yetishi aytiladi. Tarjimada esa mana shu asosiy voqealar qoldirib ketilgan va Shahrisabz shohi qizining ta‘rifi ham keltirilmagan.

Doston masnaviyda, aruzning hafif bahrida yozilgan, tarjima esa masnaviyda, 11 bo‘g‘inli barmoq vaznida o‘g‘irilgan.

Xulosa. M.Matnazarov tomonidan tarjima qilingan “Saba‘i sayyor” dostoni qoraqalpoq badiiy tarjimachiligi tarixida juda jiddiy voqea bo‘ldi. Doston vositachi til, ya‘ni rus tili orqali tarjima qilingan bo‘lsa ham tarjimon asl ma‘noni qayta yarata olgan. Tarjimada qofiyadosh so‘zlar topish, tashbehlar, iboralar, isroli masal, tazod, tarse‘, rad ul-aruz ilal-ibtido, talmeh, ruju, ishtiyoq, takrir, zulqavofi‘ kabi bir qancha she‘riy san‘atlar o‘ziga xos tarzda qayta yaratilganligi tarjimonning ijodiy-badiiy mahoratidan darak beradi.

Adabiyotlar

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати (Э.И.Фозилов таҳрири). 2-том. – Тошкент: «Фан», 1983.
2. Алишер Навоий. Сабаи сайёр. – Тошкент: «Ғафур Ғулум» номидаги нашриёт матбаа бираммаси, 1991.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2001.
4. Наъаи А. Жети ықлым. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1968.
5. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. 3-4-6-том. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 2023. 1992. 2023.
6. Таржима санъати. Мақолалар тўплами. – Тошкент: «Адабиёт ва санъат», 1980.
7. Қурамбаев К. Таржима ва таржимон маъсулияти. – Тошкент: «Фан», 2007.
8. Ташанов К.Таржимон ўзгаришларининг матн мазмунига таъсири. // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнари, 6-сон, 1991.

REZYUME. Maqolada Alisher Navoiy “Sab’al sayyor” dostonining qoraqalpoq tiliga tarjimasida muqobil soʻz va badiiy uslub masalasi oʻrganilgan holda asliyat bilan qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, asliyat va tarjimadagi baytlar taqqoslangan holda ularning mazmuniy muvofiqligi yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье был проведен сравнительный анализ с оригиналом Навои эпоса “Сабаи сайёр” на каракалпакский язык изучением вопроса об альтернативном слове и художественном стиле. Также освещается их содержательная совместимость при сравнении оригинала и байтов в переводе.

SUMMARY. This article explores the issue of equivalent words and artistic style in the Karakalpak translation of Alisher Navoi's epic “Sab’al Sayyor”, providing a comparative analysis with the original text. Additionally, the couplets from the original and the translation are compared to highlight their semantic correspondence.

JIYRENSHENIŇ SHESHENLIK SÓZLERINIŇ IDEYALÍQ HÁM KÓRKEM-ESTETIKALÍQ ÓZGESHELİKLERI

J.A.Berdimuratov – erkin izleniwshi

Ózbekstan mámleketlik mádeniyat hám kórkem óner instituti Nókis filiali

Tayanch soʻzlar: folklor, janr, soʻz, badiiylik, gʻoya, badiiy-estetika, folklor janrlari aloqasi.

Ключевые слова: фольклор, жанр, слово, художественность, идея, художественная эстетика, взаимосвязь фольклорных жанров.

Key words: folklore, genre, word, artistry, idea, artistic aesthetics, interrelation of folklore genres.

Kirisiw. Til adamlardıń bir-biri menen qatnas quralı esaplanadı. Hár adam óz kewlindegi oyların, tuyǵıların, ármanların, jaqsılıq niyetlerin, qayǵılı hásiretlerin usı tili, zıbanı, onıń sesti arqalı bir-birine jetkerip turǵan. Sana-sezim rawajlıana kelip hár qıylı formada gápler aytıp til baylıǵın, oy-tereńligin asırıp bargan. Óziniń oylaǵan oyın, pikirin sheberlik penen sırtqa shıǵaradı.

Ásirler ótiwi menen adamzat sóz qúdiretiniń ushqınların barınsha rawajlandırǵan. Onı ilimge, bilimge, mádeniyatqa ulıwma xalıqlıq mápke jumsaǵan. Nátiyjede adamlar arasınan sheshen, dilwar, artıqsha tereń pikirler júritip sóyleytuǵın, aytatuǵın talantlılar payda bolǵan. Olar óziniń sóz óneri arqalı jurtshılıqtı ózine qaratıp, ayrıqsha itibarǵa iye bolǵan. Bunday insanlarda adamlar hayran qalarlıq tapqırılıq, sózge ustalıq, tereń mánili sózlerdi dúzip aytatuǵın sheberlik belgiler payda bolǵan. Olar qanday da bir adam táǵdirindegi, turmısındaǵı, ómirindegi máselelerdiń ayrıqsha sóz sheberligi menen sheshiliwine xızmet islegen. Bunday adamlar sóylese sóz dizbegin quyqılıtıp, orınlı, zer jamıldırıp sóylep, jurtshılıqtı tań qaldırıp, hámmeni ózine eriksiz tartıp sóyleytuǵın bolǵan. Olar qálegen sheshilmeytuǵın da máselelerdi sózdegi tapqırılıǵı menen sheship, mádeniyatlı jayǵastırıp, hámmeniń kewlin tabatuǵın bolǵan. Bul insanlarǵa qanday túrde másáláhátke kelseńde, sóz benen kewliniń jubatıp, qanaatlandıırıp jiberedi.

Tiykargı bólim. Awızeki maǵlıwmatlarǵa qaraǵanda Jiyrenshe sheshen Jánibek xan zamanında jasaǵan adam. Onıń qay jılı, qay jerde tuwılıp, qashan ólgeni haqqında maǵlıwmat joq. Sonı da belgilep ótiw kerek, orta ásirler tariyxında eki Jánibek xan ótken. Birinshisi Altın Orda

1312-1340-jıllar xanlıq etken, Ózbek xannıń ulı Jánibek xan. Ekinshi qazaq xanlıǵın qurǵan Jánibek xan. Ol 1456-1478-jılları xan bolǵan. Usı waqıtqa shekem Jiyrenshe haqqında sóz etkenler barlıǵı derlik Jiyrenshe sheshen qaysı Jánibektiń tusında jasaǵanına itibar bermey keledi. Bizińshe Jiyrenshe sheshen Altın Orda xanı Jánibek (1342-1357) tusında jasaǵan bolıwı kerek. Sebebi, Jiyrenshe sheshen atınıń tek qazaq, qaraqalpaq, arallı ózbekler arasında ǵana emes, al noǵaylar, bashqurtlar, tatarlar arasında keń tarawı kópshilik türk qawimleriniń Altın Orda, Aq Orda, noǵaylı bolıp jasaǵan dáwirine tuwra keledi. Onıń ústine Jiyrenshe sheshen menen birge jasaǵan Jánibek xan sovet dáwirindegi kópshilik izertlewshilerdiń kórsetkenindey aqlısqız, aqmaq, zulım xan emes, al oǵada parasatlı, adamlardıń bilgirliǵın sinap kóretuǵın, danalıqtı, bilimlikti bahalaytuǵın oǵada ádil xan boladı. Ol Jiyrensheniń danalıq penen aytqan hár awız sózine 1000 tilla beredi. Durısında da Jiyrensheni ǵamqorlıqqa alıp qasında saqlaǵan Altın Orda xanı Jánibek xan bolıwı tolıq saykes keledi [3:136-137].

Sheshenlik sózlerdiń payda bolıw, el arasına taralıw hám rawajlanıw dáwirlerin qaraqalpaqlar arasında en jayıw dáwirin XIV-XV ásirler yaǵnıy Jiyrenshe sheshenniniń dúnyaǵa atı taralıw dáwiri dep alsaq qátelespeymiz. Sheshenlik sózler bir xalıqta ǵana birden payda bolmaydı. Dáslepki payda bolıwı eski Rimlilerde dep esaplasa, sonsha ásirlerden berli ol Oratorlıq óneri qońsı Egipt, Kishi Aziya hám sol dáwirde dúnyaǵa atı taraǵan Altın Orda mámleketi bolǵanlıǵı ózinen ózi dálillenedi. Óytkeni Altın Ordanıń xanı Jánibek xan (1342-1357) jıllarda xanlıq etip, el ishinen dana, tilge júyrik, aqlılı, sheshen, dilwar adamlardı átirapına toplaǵan bolsa, solardıń biri Jiyrenshe